

**XORIJIY TILLAR BO‘YICHA TALABALAR NUTQIY
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA YANGI PEDAGOGOK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AYRIM JIHATLARI**

G.Qosimova

Tarix fanlari nomozi, dotsent Farg‘ona davlat universiteti

M.Ne’matova

Mustaqil izlanuvchi, Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. O‘zbekistonda bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga talab yanada kuchaydi. Mana shu talablarni yoshlar tomonidan bajarilishi respublikamizni jahon hamjamiyatiga kirib borishini har tamonlama tezlashtiradi, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantiradi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitish negizida nutqiylar kompetensiyalarini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi muhokama etiladi.

Kalit so`zlar: O`qitish, chet tili, metod, pedagogik texnologiya, o`qitish, nutq.

Аннотация. В Узбекистане сегодня возрос спрос на изучение и преподавание иностранных языков. Выполнение этих требований молодежью ускорит интеграцию нашей республики в мировое сообщество и будет способствовать развитию экономических и культурных связей между странами. В данной статье рассматривается эффективность использования педагогических технологий в совершенствовании речевых компетенций на основе обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: Обучение, иностранный язык, метод, педагогическая технология, обучение, речь.

Abstract. In Uzbekistan today, the demand for learning and teaching foreign languages has increased. Fulfillment of these requirements by young people will speed up the integration of our republic into the world community and develop economic and cultural relations between the countries. This article discusses the

effectiveness of using pedagogical technologies in the improvement of speech competences on the basis of teaching foreign languages.

Key words: Teaching, foreign language, method, pedagogical technology, teaching, speech.

KIRISH

Dars samaradorligi asosan o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarga bog‘liq. Chet tili darsi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish talabaning tilga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish va ularning tildan egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarini yuqori bo‘lishini ham ta’minlaydi.

O‘qituvchi darsni o‘quv qo‘llanmasi asosida rivojlantirayotgan paytda, paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni ya’ni fonetik, grammatik va leksik qiyinchiliklarni hisobga olishi lozim. O‘qituvchi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini izlaydi va ularga mos mashqlar ishlab chiqadi. Cheg tilini talab darajasida o‘tishda til o‘rganuvchining psixologik tomonlarini hisobga olish o‘rinlidir. Talaba dars jarayonida yaxshi o‘zlashtirgan bilimlarnigina nutqiy faoliyatda qo‘llay oladi. Talabaning aqliy faoliyatini rivojlantirish orqali uning til faoliyatini kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, yutuq va kamchiliklarini aniqlashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kompyuter va axborot texnologiyalarini ta’lim sohasida qo‘llash ta’lim berish sifatiga, uni tashkil qilishga, tarkibiga, o‘qituvchilardan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, yangicha uslubda ishlashni talab qilyapti. Agar o‘qituvchilar an’anaviy usullarda ta’lim bergenlarida, ko‘proq ma’ruza o‘qishga, amaliy seminar o‘tkazishga faoliyatlarini sarf etar edi.

Hozirgi zamon talabi o‘qituvchilardan faqat o‘z fanini bilishnigina emas, balki, zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda, dars jarayonini olib borishda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni va bu texnologiyalarda mukammal ishslashni ularni boshqara olishni talab etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda unga turli-tuman talabalar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish talabalarni o‘zlashtirish darajasini jonlanishiga olib keladi.

Bugungi talaba nazariy qoidalar, grammatik bilimlar ortida real hayot borligini his qilishi zarur. Talabalar o‘z bilim salohiyati bilan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham talabalarda mantiqiy fikr yuritishdan oldin motivatsiyani vujudga keltirish talab etiladi. Buning uchun jismoniy tarbiya universiteti va jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o‘qituvchi tomonidan talabalarning qiziqtilishi ortib, ularning ta’lim jarayonida faolligi rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materiallarini kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularni mazmunini ortishda bahs-munozara, faollik, kichik guruhlarda ishlash metodlarini qo‘llash, rang-barang qiziqtaruvchi misollarni keltirish usullaridan foydalanish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Chet tili darsi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish talabani tilga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi va ularning til sohasida bilim, ko‘nikma va malakalarini yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Zamonaviy texnologiya-shakliga ko‘ra: erkin ta’lim, noan’anaviy mashg‘ulot va faollashtirish; uslubiga ko‘ra: izlanish, muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil ijodiy erkin fikrlashdir.

Pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, unda o‘quv maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Ta’lim tarbiya maqsadi va vazifalari shunday belgilanishi lozimki, unda umumiy jamiyat o‘quv maqsadlari va har bir bosqichlarning aniq maqsadi va vazifalari mushtarak bog‘liqligini ta’minlashi lozim.

Hozirgi kunda mashg‘ulotlarni noan’anaviy tarzda tashkil etishga e’tibor qaratilayotganining sababi ham shunda. Buni chet tillarni o‘qitish misolida ko‘radigan bo‘lsak, interfaol o‘qitish usullari talabalarninpil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi va’tili tezroq va osonrok o‘zlashtiriyuiga yordam bsradi. Bu usul o‘z ichiga rolli o‘yiilar ijro etish, dialoglar tuzish, diskussiyalar o‘tkazishni,

shuningdek gapirishga o‘rgatuvchi o‘yinlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim samarasini oshirishdagi o‘qituvchiga bevosita bog‘liq bo‘lgan yana bir muhim jihat, bu darsga oid tarqatma materiallarning tanlanishidir. To‘g‘ri tanlangan tarqatma material o‘qituvchining vaqtini tejashta, darsning talabalar uchun maroqli bo‘lishiga xizmat qiladi, talaba o‘z bilimiga ishonch hosil qiladi va mustaqil gapira boshlaydi. Berilayotgan vazifalar talabalar uchun tushunarli va oson, ularning yosh xususiyatlari va bilim darajasiga mos tanlanishi, o‘z juftlari bilan yoki kichik guruhlarga bo‘linib ishlashda talabalar bilmagan narsasini o‘rtog‘idan so‘rab bilib olishi mumkinligi talabalarning erkin fikrlashiga olib keladi. Vazifalar oldindan berilmasligi spontan nutqning rivojlanishiga olib keladi, bu xorijiy tilni o‘rganishdagi eng muhim sifatlardan biri sanaladi.

“Pedagogik texnologiya” iborasi birinchi marta 1970-yilda yapon olimi T.Sakamote tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha, pedagogik texnologiya (o‘qitish texnologiyasi) o‘qitishning maqbulligini ta’minlovchi yo‘l-yo‘riqlar tizimi bilan bog‘liq bilimlar sohasidir. O‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘qituvchi talaba-o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va talaba-o‘quvchilarga bog‘liq. Shu bilan bir qatorda har bir o‘qituvchi o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirib, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o‘quvchi-talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Darsning texnologiya xaritasini, har bir o‘qituvchi o‘zining pedagogik mahoratiga qarab yondashadi.

NATIJALAR

Texnologik xaritaning o‘quvchi-talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib

chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta’limiing markaziga olib chiqadi. Bu esa o‘qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Ta’lim jarayonida o‘rgatuvchi va o‘rganuvchilar hissasining nisbati insoniyat taraqqiyotining (sivilizatsiyaning) turli davrlarida turlicha bo‘lgan. Bir vaqtlar ta’lim beruvchilar yetakchi bo‘lgan bo‘lsa, ma’lum davrlarda ta’lim oluvchilar tashabbuskor bo‘lishgan va bunday faolliklarning ijobiy va salbiy jihatlari tadqiq etilgan. Keyingi o‘n yilliklarda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ta’lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanmoqda va ommalashmoqda.

Interfaol usullarda muammoli, hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Bahsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlesh natijasiga bog‘liq bo‘lib qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunaday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar talaba-o‘quvchilarning aqliy kuchini zo‘riqtiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo‘llar qidira boshlaydi. Qiyinchiliklar bilan to‘qnashadi.

Vizual (ko‘rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o‘quvchilar ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalarni o‘z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o‘quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san’at asarlari, video, kino tasvirlar, jonvorlar, o‘simgiliklar, tabiat obyektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi.

Ko‘rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyada qo‘llanilishi talaba-o‘quvchilarga o‘rgatish kerak bo‘lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko‘rsatish orqali tez, aniq va to‘g‘ri tushuntirish imkoniyatini beradi.

Umuman pedagogik texnologiyaning sifati va samaradorligi hozirgi kunda ko‘p jihatdan barcha turdagи zarur vositalarning sifati va ularidan yuqori samaradorlik bilan foydalana bilishga bog‘liq.

Bu vositalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish o‘qituvchining malaka,

mahorat, ijodkorligi, izlanuvchanligiga bog'liq. O'qituvchi mashg'ulotni boshlashdan avval tinglovchilarni muloqot, bahs-munozarani o'tkazishga qo'yiladigan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi.

Hozirgi yangilanish davrida ta'lif jarayonini takomillashtirishni amalga oshirishda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanilishi o'qituvchilik faoliyatini, o'quv jarayonida uning mazmunini va funksiyasini keskin o'zgartirib yuboradi.

Dars jarayoni ko'p qirrali va murakkab mashqlar yig'indisidan tashkil topishini nazarda tutib, dars jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi usul va metodlardan foydalanish mumkinligini qayd etamiz:

- o'quv guruhlarini ikki guruhga bo'lgan holda biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr yuritish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy-axloqiy mavzular yoki sohalarga oid biror muammoli holat haqida fikr almashish;
- matnli materiallardan foydalangan holda turli vaziyatlar haqida suhbat olib borish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy-axloqiy mavzular yoki sohalarga oid gazeta va jurnallar maqolalarini mustaqil o'zlashtirish;
- talabalarni olgan bilimlaridan foydalangan holda amaliy nutqlarda foydalanish;
- suhbatlarda ishtirok etish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar chet tillarni o'qitishda dars o'tish uslubini kengaytirib unutilayotgan darsning sifatini oshirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zerneskiy P.V. Единство речевой деятельности в диалогическом дискурсе Языковое общение: единицы и регулятивы. - Калинин, 1987. - С.89-95.
2. Kubryakova Ye., Surikov L. V. Верbalная деятельность СМИ как особый вид

дискурсивной деятельности // Язык СМИ. О‘кув қо‘лланма. – М., «Альма Матер», 2008. – С.183

3. Makarov M.L. Диалог с целью принятия решения. Опыт дискурсивной психологии. // Жанры речи. - Саратов: «Колледж». 1997. – С.153 -162.